Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · "Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317804

borada muayyan natijalarga erishilgan. Biroq hali ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Quyida inflyatsiyani kamaytirish bo‘yicha olib borilgan choralar, ularning samaradorligi hamda istiqbolli yechimlar ko‘rib chiqiladi.

1. Inflyatsion targetlash tizimiga o‘tish: 2020-yildan boshlab O‘zbekiston Markaziy banki inflyatsion targetlash siyosatini joriy etishga kirishdi. Bu tizimda asosiy e’tibor narxlar barqarorligini ta’minlashga qaratiladi. Raqamli maqsadlar belgilangan bo‘lsa-da, amalda inflyatsiya darajasini pasaytirish sekin kechmoqda.
2. Pul-kredit siyosatining qat’iylashtirilish: Asosiy foiz stavkasining oshirilishi orqali ichki talabni susaytirish maqsad qilingan. Biroq bu chora iqtisodiy faollik va kreditlash hajmiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.
3. Narx nazorati va subsidiyalar: Energetika va oziq-ovqat sohalarida narxlarni vaqtincha tartibga solish choralari qo‘llanilgan. Biroq bu chora qisqa muddatli bo‘lib, uzoq muddatda bozordagi disbalansni kuchaytirishi mumkin.
4. Valyuta kursining bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi: Erkin konvertatsiyaga o‘tish eksport-import muvozanatini ta’minlashga yordam beradi, biroq bu ham import narxlarining oshishiga olib kelmoqda.

Xulosa: O‘zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid soluvchi omillardan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiya ko‘rsatkichlariga ichki talabning ortishi, importga bog‘liqlik, valyuta kursining o‘zgarishi va narxlar barqarorligining zaifligi salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hukumat tomonidan olib borilgan pul-kredit va fiskal siyosat muayyan ijobiy natijalar bergan bo‘lsa-da, inflyatsiyani izchil nazoratga olish uchun ishlab chiqarishni rivojlantirish, energetika samaradorligini oshirish va inflyatsion kutilmalarni boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.T.Salimov, M.S.Yusupov ,,Mikroiqtisodiyot’’ darslik.Toshkent (2021y).
2. E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabborov ,,Makroiqtisodiyot’’ o’quv qo’llanma.Toshkent (2018y).
3. www.stat.uz –O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi veb sayti.
4.www.wordbank.org-Jahon banki ma’lumotlari.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH.

Xolmatova Nodiraxon Quddusovna
TDIU Andijon fakulteti katta o’qituvchisi

Published: 24.05.2025

Cite this article: Xolmatova Nodiraxon Quddusovna, Maxmudov Farrux Rustamjon o’g’li (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317804

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Maxmudov Farrux Rustamjon o’g’li
TDIU Andijon fakulteti 3-bosqich
“Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishi talabasi
mfarruh070@gmail.com
tel:(94)193-43-03

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va raqamli texnologiyalarning hududiy iqtisodiy o‘sishiga ta’siri o’rganilgan. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi global va mahalliy iqtisodiy tizimlarda o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishi raqamli texnologiyalar yordamida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi va unga moslashuvining turli hududlarda qanday amalga oshirilganligi va bu jarayonning ijtimoiy - iqtisodiy natijalari o‘rganiladi. Raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi, mavjud muammolar va ular bilan bog‘liq yechimlar ko‘rsatiladi.Tadqiqot natijalari hududiy strategiyalarni shakllantirishda va raqamli transformatsiyaning samaradorligini oshirishda foydali bo‘ladi.

Kalit so’zlar: Raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy o‘sishi, hududiy strategiyalar, raqamli transformatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-экономическое развитие регионов в условиях цифровой экономики и влияние цифровых технологий на экономический рост регионов. Стремительное развитие цифровой экономики приводит к изменениям в глобальных и локальных экономических системах. В связи с этим экономическое и социальное развитие регионов создает новые возможности с помощью цифровых технологий. Изучено, как осуществлялся рост и адаптация цифровой экономики в разных регионах и социально-экономические результаты этого процесса. Как цифровая экономика влияет на социально-экономическое развитие, показаны существующие проблемы и пути их решения. Результаты исследования будут полезны при формировании региональных стратегий и повышении эффективности цифровой трансформации.

Ключевые слова: Цифровая экономика, социально-экономическое развитие, цифровые технологии, экономический рост, региональные стратегии, цифровая трансформация.

Abstract: This article examines the socio-economic development of regions in the digital economy and the impact of digital technologies on regional economic

growth. The rapid development of the digital economy is leading to changes in global and local economic systems. In this regard, the economic and social development of the regions is creating new opportunities with the help of digital technologies. How the growth and adaptation of the digital economy was implemented in different regions and the social and economic results of this process are studied. How the digital economy affects socio-economic development, the existing problems and their solutions are shown. The results of the research will be useful in forming regional strategies and increasing the effectiveness of digital transformation.

Keywords: Digital economy, socio-economic development, digital technologies, economic growth, regional strategies, digital transformation.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tatbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko‘rsatish, elektron to‘lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy tizimni boshqarishda yangi raqamli texnologiyalar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo‘lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o‘ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o‘rganishi kerak”. Raqamli iqtisodiyotning global dunyoda muhimlik darajasi oshib bormoqda. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, tarmoq va sohalardagi logistika hamda tashkiliy xarajatlarni qisqartirishda, hamda mehnat unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat. Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog‘liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e’tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildaigi PF–6079-sonli “RAQAMLI IQTISODIYOT–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va

davlat boshqaruvi tiziming jadal raqamli rivojlanishini ta’minlash, shu jumladan, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilindi. Mazkur farmon nafaqat raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etishda ham yuqori darajada ahamiyatlidir. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda jamoatchilik nazoratini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish dolzarb vazifadir.

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi afzalliklari ajratiladi.

• mehnat unumdorligini 40 % gacha oshirishi taxmin qilinadi;

• raqamli iqtisodiyot juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga ega;

• onlayn platformalar orqali sotiladigan yangi ish shakllarining yuzaga kelishi;

• raqamli transformatsiya maxsus xizmatlar uchun savdo infrastrukturasining o‘zgarishi;

• sanoat mahsulotlari eksporti endilikda AKT mahsulotlari va xizmatlariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda;

• raqamli iqtisodiyot juda qisqa vaqt ichida ulkan boyliklarni keltirib chiqardi, ammo bu boylik oz sonli shaxs, kompaniya va mamlakatlar atrofida to‘plangan. Amaldagi siyosat va qoidalar asosida ushbu traektoriya davom etishi mumkin, lekin bu tengsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Shu bilan birga ushbu iqtisodiyotning ayrim ziddiyatli tomonlari ham mavjud. Ular quyidagilar:

• yangi texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt, muqarrar ravishda mehnat bozorida katta o‘zgarishlarga olib keladi, jumladan, ba’zi tarmoqlarda ish o‘rinlarining yo‘qolib ketishi va boshqalarida keng miqyosda imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi;

• raqamli iqtisodiyot bir qator yangi va turli xil ko‘nikmalar, ijtimoiy himoya siyosatining yangi avlodi, ish va bo‘sh vaqt o‘rtasidagi yangi munosabatlarni talab qiladi;

• raqamli iqtisodiyot, shuningdek, kiberxavfsizlik buzilishlaridan tortib noqonuniy iqtisodiy faoliyatga ko‘maklashish va shaxsiy hayotning maxfiy tushunchalariga qadar yangi xavflarni keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyot deyarli hamma narsaga oid juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga asoslangan holda katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishida jamoatchilik nazoratini o‘rnatish va jamoatchilik nazoratini raqamli zamonaviy shakllarda tashkil etish ishlari bir necha yillar oldin davlatimiz tomonidan katta e’tiborga olingan bo‘lib, bunga misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.03.2020-yildagi PQ-4642-sonli “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridir. Mazkur qaror bilan 2020-yil 1-mayga qadar shahar infratuzilmasining holati, davlat xizmatlarining sifati va boshqa masalalar yuzasidan jamoaatchilik nazoratini tahskil etish uchun “Xalq nazorati” portali va mobil ilovasi ishga tushirildi. Jamoatchilik nazoratiga turli-tuman ta’riflar berilgan. Jamoatchilik nazoratining asosiy xususiyatlarini qamrab oladigan quyidagicha ta’rifdan foydalanish o‘rinliroq bo‘ladi: Jamoatchilik nazorati – jamoat birlashmalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining amaldagi qonunlarga mosligini aniqlash va baholash bo‘yicha yuritadigan faoliyat.

Hozirgi vaqtga qadar mamlakatimizda quyidagi jamoatchilik nazoratiga oid bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

1.“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2018-yil 12-aprel

2. “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2019-yil 29-avgust .

3.“Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2021-yil 16-iyun.

4.Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2019-yil 13-dekabr.

5.“Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o‘zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2019-yil 4-oktabr.

Jamoatchilik nazorati uzoq tarixga ega bo‘lsa ham, uni ilmiy tushuncha sifatida fanga ijtimoiy psixologiyaning asoschilaridan bo‘lgan T.Tard olib kirdi. Uning

talqinida mazkur tushuncha jinoyatchining xulq-atvorini me’yoriy qoidalar doirasiga qaytarish uchun qo‘llaniladigan usullar majmuini ifodalagan. Keyinroq, bu tushunchaning mazmuni ancha kengaydi. Bunday kengayish amerikalik sotsiologlar E.Ross va R.Park tadqiqotlari tufayli yuz berdi. Ularning talqinida jamoatchilik nazorati individga uning xulq-atvorini ijtimoiy me’yorlarga mos keltirish maqsadida o‘tkaziladigan ta’sirni anglatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jamoatchilik nazorati ijtimoiy tizimning o‘zini o‘zi tartibga solish usulidir. Mazkur usul huquqiy me’yorlar yordamida hamda mazkur tizimning tarkibiy qismlari orqali tartib va barqarorlikni ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi. Jamoatchilik nazoratini jamiyatni raqamlashtirish asosida tashkil etish natijasida hududlarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ko‘lamini kengaytirish, jamiyat a’zolarida ma’suliyat hissini oshirish va hududlar rahbarlarini mazkur hududlar aholisi bilan keng qamrovli muloqotini tashkil etishga asosiy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/559/1026
2.https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/download/16450/17162
3. https://lex.uz/mact/-3302438
4. https://soff.uz/product
5. https://adolat.uz/news/raqamlashtirish-rivozhlanishning-muhim-omili
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PV-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-5841063
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.03.2020-yildagi PQ-4642-sonli “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, https://lex.uz/ru/docs/4767514

RAQAMLI VALYUTALARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI VA AHAMIYATI

Suyarov ZokirjonErgashevich
TDIU Andijon fakulteti
“Mutaxassislik,ijtimoiy-gumanitar vaaniq fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Bahriddinov Ulugbek Bahridin o’g’li